

OLIY TA'LIM SOHASIDA KORRUPSIYANI BARTARAF ETISHDA XORIJY TAJRIBA

Zikrulloh Rahmonaliyev

Farg'ona davlat universiteti yurisprudensiya yo'nalishi 2-kurs talabasi

Annotatsiya: Nodavlat Oliy ta'lif muassasalari va huquqni muhofaza qiluvchi organlarining faol harati va ularning bu illat yuzasidan asos deb biladigan fikr va mulohazalari batafsil yoritilib ko'rsatilib o'tilgan.

Kalit so'zlar: "Yuridik faoliyat", "Nodavlat tashkilotlar", "Shikoyatlar", "Xorijiy tajriba".

Ma'lum sohada islohotlarni amalga oshirishda xorijiy davlatlar tajribasini o'rghanish foydadan holi bo'lmaydi. Shuning uchun, Ukraina va Gruziyaning oliy ta'lif sohasidagi korrupsiyaga qarshi kurashish bilan bog'liq ijobjiy tajribalarini ko'rib chiqamiz.

Ukraina. Ukraina Respublikasi Konstitutsiyasining 53-moddasida, hukumat mактабгача, умумий о'рта, касбиј ва олий та'лим олиш учун давлат ва xусусiy muassasalarga erkin kirishni kafolatlashi belgilangan. Ukraina sobiq Prezidenti Viktor Yushchenko davlat universitetlarida korrupsiyani to'xtatishga, rektor va professorlarni kirish imtihonlarida poraxo'rlik va kranizm holatlariga yo'l qo'ymaslikka chaqirib, mavjud vaziyatni sharmandalik sifatida baholagan.

Ukrainada 1995-2012 yillar eski Sovet oliy ta'lif tizimidan chiqish va yangi tizimni yaratish davri hisoblanadi. Fuqarolar urushidan so'ng davlatda katta va shiddatli islohotlar amalga oshirilgan bo'lib, ularning ko'pchiligi oliy ta'lif tizimi bilan bog'liq.

OTMga mustaqillik berish sohadagi asosiy islohotlardan biri bo'ldi. Biroq, universitetlarga mustaqillik berish Sovet ittifoqi tarkibida bo'lgan Ukraina uchun yangi hodisa bo'lgani sababli rivojlangan davlatlar amaliyotini joriy etish juda sekin amalga oshirildi. Ukraina 1999 yil 19 iyunda qabul qilingan Boloniya Deklaratsiyasiga 2005 yilda Bergen Deklaratsiyasini imzolash orqali qo'shildi. Akademik doira vakillari va talabalarni ingliz tilini bilmasligi OTMdakorrupsiyani mavjud bo'lishining asosiy sabablaridan biri bo'ldi. Zero, ular ingliz tilidagi rivojlangan davlatlarning korrupsiyaga qarshi kurashi bo'yicha ijobjiy tajribalari bilan tanishish imkoniyatidan mahrum edi.

Ta'lif vaziri Sergey Kvintning fikricha, Ukraina oliy ta'limi va mehnat bozori o'rtafigi bog'liqlik mavjud emas, chunki talabalar davlat uchun zarur bo'lmagan kasblarga o'qimoqda. Mamlakatda tabiiy, texnologiya va muxandislik yo'nalishidagi mutaxassislarga ehtiyoj bo'lgan vaqtida ko'pchilik talabalar iqtisod va yuristlik sohalarini tanlashmoqda.

"INTEGRATION, EVOLUTION, MODERNIZATION: WAYS OF DEVELOPMENT OF SCIENCE AND EDUCATION"

Ukrainada 2014 yil 1 iyulda “Oliy ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunni qabul qilinib, oliy ta’lim sohasida davlat siyosatining asosiy prinsiplarini belgiladi.

Ta’lim va fan vazirligi mamlakatda oliy ta’lim bo‘yicha yetakchi ijro organi bo‘lib, asosiy vazifasi oliy ta’lim sohasida milliy strategiya va dasturlarni belgilash hamda ijro etish hisoblanadi.

Oliy ta’lim sifatini ta’minlash Milliy agentligi sohada ta’lim sifatini ta’minlovchi doimiy vakillik organi bo‘lib, har yili ta’lim sifati bo‘yicha hisobot tayyorlaydi va qonunchilikka takliflar beradi. Mazkur agentlik 23 nafar xodimdan iborat bo‘lib, Vazirlar Mahkamasi tomonidan o’tkaziladigan tanlov asosida shakllantiriladi. Agentlikni tashkil etilishi Boloniya Deklaratsiyasi tavsiyalariga muvofiq emas, lekin korrupsiyaviy holatlarni inobatga olgan holda Ukraina o‘ziga hos islohot yo‘lini tanladi, ya’ni ta’lim standartlarini Boloniya tavsiyalariga moslashtirish bilan birga o‘zgarishlar davrida nazorat funksiyasidan ham foydalandi.

Oliy ta’lim sifatini baholash mustaqil nodavlat tashkilotlar tomonidan ham amalga oshirishi mumkin bo‘lib, bu tashkilotlar Agentlik tomonidan akkreditatsiyadan o’tkaziladi. Nodavlat tashkilotlar xizmatidan foydalanish OTM uchun ixtiyoriy bo‘lib, tashkilot OTM tekshirgani haqida sertifikat beradi.

“Oliy ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun bilan OTMni akkreditatsiyadan o’tkazishning yangi tartibi belgilandi. O’tgan 2010-2015 yillarda 154 ta OTM yopilgan bo‘lsa, shulardan 46 tasi 2010-2013 yillarda, 108 tasi 2014-2015 yillarda yopilgan va ushbu raqamlar ham yangi akkreditatsiya tartibi qat’iy ekanligini ko‘rsatmoqda.

Shuningdek, 2016 yilda Ukraina Qabul Markazi tashkil etilib, uning asosiy vazifasi xorijiy talabalar va xorijda o‘qimoqchi bo‘lgan talabalarga ko‘maklashish xisoblanadi. Markaz xususiy tashkilot bo‘lib, mamlakat miqyosida 16 filiallari mavjud. Markaz 2016 yil 14 mayda tashkil etilgan bo‘lsada, bir oy ichida unga 1500 ta arizalar kelib tushgan. Ukraina tajribasiga tayangan holda Rossiya, Gruziya, Polsha va Qozog‘iston davlatlari ham mazkur turdagи markazlarni tashkil qildi.

Oliy ta’lim sohasida Yagona elektron ma’lumotlar bazasi yaratilib, mazkur bazada OTM ro‘yxati, oliy ta’lim bo‘yicha hujjatlar, baholash sertifikatlari ro‘yxati va talabalar ro‘yxati va boshqa ma’lumotlar mavjud. Elektron baza Ta’lim va fan vazirligi tomonidan yuritilib, ma’lumotlarni olish barcha uchun ochiq va tekin. Ta’kidlash kerakki, Markaz foydalanuvchilarga faqat ma’lumotlarni olish va huquqiy yordam ko‘rsatish borasida xizmat ko‘rsatadi, lekin ariza va shikoyatlarni ko‘rib chiqmaydi.

“Oliy ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunda oliy ta’lim darajalari belgilab qo‘ylgan bo‘lib, ular quyidagilar:

boshlang‘ich daraja (kichik bakalavr);

birinchi yoki bakalavr darajasi (bakalavr);

ikkinchi yoki magistratura darajasi (magistr);

"INTEGRATION, EVOLUTION, MODERNIZATION: WAYS OF DEVELOPMENT OF SCIENCE AND EDUCATION"

uchinchi yoki o'quv-ilmiy yohud o'quv-ijodiy (falsaфа doktori); – to'rtinchi yoki ilmiy daraja (fan doktori).

OTM tashkiliy huquqiy shakliga ko'ra: budget muassasalari, notijorat muassasalar, foyda olishga yo'naltirilgan muassasalari; tuzilishi ko'ra: universitet, akademiya (institut) va kollej kabi turlarga bo'linadi.

Davlat OTMlari qonun asosida, xususiy OTMlari nizomi asosida o'z tashkiliy tuzilishini erkin belgilaydi. OTMning tashkiliy tuzilishi Ilmiy Kengash qarori bilan tuzilib, fakultet, kafedra va kutubxona kabi bo'limlardan iborat bo'ladi.

OTMga mustaqillik, akademik va kunlik faoliyatlarini boshqarish huquqi berildi. Rahbar ta'lif, tadqiqot, innovatsiya, moliyaviy faoliyat bo'yicha OTMga hisobdor bo'lib, u besh yil muddatga akademik va boshqa xodimlar, talabalar vakillari tomonidan saylanadi.

OTMdagi Ilmiy Kengash, Kuzatuv Kengashi, ishchi va maslahatchi tuzilmalar, Bosh Assambeliya kabi demokratik va jamoaviy boshqaruv tuzilmalari tashkil etilgan va talabalar OTM boshqaruvida ishtirok etadi.

Ukrainada 2015-2016 yillar davomida 288 ta OTM mavjud bo'lib, ularni 196 davlat, 12 tasi mahalliy va 80 tasi xususiy ta'lif muassasalari hisoblanadi. Mazkur muassasalarda 1.375.160 nafar talabalar o'qishga qabul qilingan bo'lib, ularning 68 foizi kunduzgi ta'limda o'qisa, 49 foizi budget asosida ta'lif oladi.

OTMga to'rtda turdag'i bosqichlar uchun qabul jarayonlari bo'lib, bular boshlang'ich bakalavriat (2-3 yil), bakalavriat (3-4 yil), magistratura (1.5-2 yil), doktorantura (4 yil) bosqichlari hisoblanadi.

"Oliy ta'lif to'g'risida"gi Qonunga asosan 2016 yildan boshlang'ich bakavriat va bakalavriat bosqichlariga kirish uchun 5 turdag'i mezonlar asosida nomzodlar qabul qilingan:

o'rta maktabni tugatish Sertifikat baholari bo'yicha;

Tashqi Mustaqil Test natijalari bo'yicha;

sport va san'at va boshqa sohalardagi qobiliyat bo'yicha;

ilmiy tanlovlari g'oliblari (olimpiada);

imtiyozli kirish huquqiga ega toifa.

Yuqoridaagi 1 va 2-talabalar o'qishga imtiyozli kirishga ruxsat berilgan nomzodlardan tashqari barcha uchun majburiy hisoblanadi. Sport, san'at, arxitektura va boshqa sohalarda alohida qobiliyatga ega nomzodlar qo'shimcha testlar orqali tanlab olinsa, ilmiy olimpiada g'oliblari OTMga 4-talab bo'yicha qabul qilinadi. Harbiy xodimlar, imkoniyati cheklanganlar, Milliy olimpiya terma jamoasi a'zolari va boshqa imtiyozli qabul qilinadigan nomzodlar toifasi universitet tomonidan belgilanib, ularning soni ko'pi bilan qabul qilinishi lozim bo'lgan talabalarning 5 foizidan oshmasligi kerak.

Ukrainada oliy ta'lif olishni hoxlovchilar soni boshqa davlatlarga nisbatan ko'p bo'lgani holda bu ko'rsatkich 79 foizni takshil etsa, Polshada 72, Fransiya va

"INTEGRATION, EVOLUTION, MODERNIZATION: WAYS OF DEVELOPMENT OF SCIENCE AND EDUCATION"

Germaniyada 60 foizni, Buyuk Britaniyada 57 foizni tashkil etadi. Shuningdek, ijtimoiy so'rovda atiga 8 foiz mакtab bituvchilarining ota-onalari ularni oliv ta'lif olmasligini bildirgan. Davlat granti uchun jiddiy raqobat mavjud, chunki davlat talaba uchun o'rtacha 6000-12000 grivna o'qish puli va 800 grivna oylik stipendiya to'laydi. Davlat granti bakalavr bosqichida 9,2 foizni, magistratura bosqichida 14,7 foizni tashkil qilib, mashhur universitetlarga kirish uchun jiddiy kurash bo'ladi.

O'tgan 2008 yilda har uchtadan bitta talaba OTMga pora asosida kirgan va o'rtacha 2000 nafar nomzodlar test savollarini oldindan sotib olish yo'lidan foydalangani sababli hukumat o'qishga kirishda korrupsiyani oldini olish uchun kirish imtihonlarini markazlashtirdi. Oliy ta'lif sifatini ta'minlash Milliy agentligi tomonidan 2016 yilda 267.172 maktab bitiruvchilaridan 12 ta fan bo'yicha 1100 ta hududiy va mahalliy markazlarda test olingan. Test topshirgan 2086 nafar nomzodlar ishtirokida o'tkazilgan so'rovda atiga 6 foiz nomzodlarga imtihonga ishonmasligini bildirgan.

O'qishga kirmoqchi bo'lgan nomzod o'z xohishiga asosan kirmoqchi bo'lgan OTMni tartib bilan ko'rsatishi kerak. Agar u birinchi OTMga kira olmasa keyingi o'rindagi OTMga kirishi mumkin bo'ladi.

Biroq, OTMga imtiyozli asosda o'qishga kirish bilan bog'liq korrupsiyaviy holatlar kuzatilgan. Xususan, milliy olimpiada terma jamoasi a'zolari va olimpiada championlari sport va jismoniy tartibiya yo'nalishlari bo'yicha imtihonsiz, Chernobyl jabrlanuchilari, urush qatnashchilari faqat og'zaki suhbat asosida, chin yetimlar imtiyozli ballar asosida o'qishga kirishi mumkin bo'lib, ular ushbu imtiyozlardan sohta hujjatlar tayyorlash yoki imtiyoz beruvchi holatlarni sun'iy yuzaga keltirish orqali foydalanishga urinishgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. SH.M.Mirziyoyev, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 26 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdag'i ma'ruza, 2018 yil 7 dekabr.
2. SH.M.Mirziyoyev, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga yo'llagan murojaatnomasi, 2020 24 yanvar.
3. Korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha Respublika Idoralararo komissiyaning yig'ilish bayoni, "Oliy ta'lif sohasida korrupsiyaga qarshi kurashish va qonuniylikni ta'minlashga doir masalalar" 2019 yil 18 yanvar.
4. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlar ma'lumotlari milliy bazasi, 2019 y., 06/19/5847/3887-son.
5. Osipian A. "Glossary of Higher Education Corruption with Explanations", 2009,p 26 <http://people.vanderbilt.edu/~ararat.osipian>. <http://www.osvita.org>.
6. Balikov P.N i drugiye "Organizatsiya psixologicheskoy raboti anti korruptionnoy napravленности v tamojennix organax Rossiyskoy Federatsii" metodicheskiye rekomendatsii. - SPB, 2010.

**"INTEGRATION, EVOLUTION, MODERNIZATION:
WAYS OF DEVELOPMENT OF SCIENCE AND EDUCATION"**

7. OECD Reviews of Integrity in Education: Ukraine 2017.
<https://read.oecd-ilibrary.org>.

8. Sofiya Nikolaeva, "Yehe Bologna process in Ukraine: the decade anniversary" General and Professional Education 2015 p – 66-74.

